XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 22 - iyul VI-50-87-3-48-K/23 Zomin tumani hokimligi

Zomin tumani 2023-yil 2-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga mablag‘ yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi “Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Zomin tumani 2023-yil 2-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Mamatqulov)ga mahalliy byudjetga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin va 2023-yil 2-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan 15 foizi “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga ajratish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi v.v.b (A.Ro‘zibekov)ga ajratilgan mablag‘ni doimiy ish o‘rniga ega bo‘lmagan, uyushmagan va ehtiyojmand yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ochilgan “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga o‘tkazib berish yuklansin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining maxalliy budjet, iktisodiy isloxotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi S.Ergashev hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Abdug'aniyev**